

**Mobil ilova orqali va Bank bo‘linmasida olish uchun
«Mikroqarz» mahsuloti pasporti**

1.	Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon nomerlari	"Octobank" AJ, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100021, Furqat ko‘chasi, 2-uy www.octobank.uz +998 71 202 33 33
2.	Kredit mahsulotining nomi	«Mikroqarz»
3.	Kredit maqsadi	Qarz oluvchining shaxsiy ehtiyojlari uchun
4.	Kredit turi	Mikroqarz
5.	Kredit tipi	Qayta tiklanmaydigan kredit
6.	Foiz stavkasi	APBQ tomonidan o‘rnatilgan stavkaga muvofiq
7.	Kredit miqdori	4 000 000 dan 100 000 000 gacha
8.	Kredit valyutasi	O‘zbekiston Respublikasi Milliy valyutasi - so‘m
9.	Kreditdan foydalanish muddati	12, 24, 36 oy
10.	Qarz oluvchiga minimal talablar	- Jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi; - Qarz oluvchining yoshi: • Kredit berish vaqtida kamida 20 yosh; • Kredit shartnomasining tugash sanasiga ayollar uchun ko‘pi bilan 55 yosh va erkaklar uchun ko‘pi bilan 60 yoshni tashkil etishi zarur; - Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ro‘yxatga olinganligi; - Umumiy mehnat staji – kamida 6 (olti) oy; - Oxirgi ish joyidagi staji – kamida 3 (uch) oy; - “Octobank” AJ mijoz; - Telefon nomeri mavjudligi; - JShShIR mavjudligi; - Qarz yuki ko‘rsatkichi 50% dan oshmasligi zarur. - talabnoma berilgan sanadan kamida oxirgi 6 oyda doimiy daromad manbaining mavjudligi
11.	Asosiy qarzni to‘lash muddatlari buzilganida foiz stavkasi	Kredit bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan asosiy qarzning haqiqiy qoldig‘iga 50,00% yillik foiz.
12.	Kredit ta‘minoti	Bank mablag‘lari hisobidan mikroqarzning butun muddatiga mikroqarz summasining 130% miqdorida bank foydasiga to‘lanadigan mikroqarz to‘lanmasligi xatarining sug‘urta polisi.
13.	Qarz oluvchi taqdim etadigan hujjatlar ro‘yxati	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti/ID karta (iste‘molchi bank binosiga kelgan hollarda).
14.	Foizlarni hisoblash tartibi	Foizlar kredit berilgan sanadan boshlab har kuni asosiy qarz qoldig‘iga hisoblanadi.
15.	Kreditning to‘liq qiymati (KTQ)	Bazaviy foiz stavkasi asosida hisoblanadi.
16.	Kreditning imtiyozli davri	Mavjud emas
17.	Kreditni qoplashda, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lashda qarz oluvchi to‘lovlarning davriyligi	Har oyda, to‘lash grafigiga muvofiq
18.	Kreditni qoplash usuli	Annuitet to‘lovlar bilan

19.	Qoplash sanasi	Avtomatlashgan usulda shakllantiriladigan to'lash grafigiga muvofiq.
20.	To'lovlar davridagi bir martalik to'lov summasi	Asosiy qarz summasini va muddatli foizlarni oladi va to'lash grafigida ko'rsatiladi.
21.	Kredit bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar	Mavjud emas
22.	Bank komissiyasi va yig'implari turlari bo'yicha:	Mavjud emas
23.	- uchinchi shaxslarning xizmatlari	Mavjud emas
24.	- berish uchun to'lov	Mavjud emas
25.	Muddati o'tgan qarzдорlikni to'lash tartibi	Muddati o'tgan qarzдорlik qarzдорning nomiga, shu jumladan boshqa Banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib olinadi.
26.	Kredit talabnomasini shakllantirish usuli	- Bankning mobil ilovasi orqali; - Banka bo'linmasiga murojaat qilish yo'li bilan.
27.	Kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish usuli	Kredit berish to'g'risidagi qaror qarzдорni baholashning avtomatlashgan tizimi orqali skoring o'tkazishdan so'ng Bank o'zi mustaqil olgan ma'lumotlar asosida tizim tomonidan avtomatlashgan tarzda qabul qilinadi.
28.	Kredit ajratish shakli, shu jumladan xizmatlarni masofadan ko'rsatish tizimi orqali	Bir vaqtning o'zida to'liq summada pul mablag'larini "Octobank" AJ chiqargan bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan.
29.	Parallel ravishda bir nechta kredit rasmiylashtirish imkoniyati	Yo'q
30.	Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan hollarda iste'molchining javobgarligi va xatarlari	Bank kredit shartnomasiga muvofiq qarzдорdan mikroqarzni muddatidan oldin qoplashni talab qilish huquqiga ega (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda).
31.	Qarz beruvchi, kafil va kredit shartnomasining tomoni hisoblanadigan boshqa shaxsning javobgarligi va xatarlari	Kredit shartnomasi kredit berishda garov yoki kafillik shaklidagi ta'minotni ko'zda tutmaydi.
32.	Muddati o'tgan qarzдорlikni undirish jarayonida Bank va iste'molchining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek tomonlarning javobgarligi to'g'risida axborot	Tomonlarning shartlari, xizmatlari, huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi barcha axborot kredit shartnomasida ko'rsatiladi.
33.	Muddatidan oldin qoplash tartibi	Mikroqarzni ham to'liq miqdorda, ham qisman muddatidan oldin (To'lash grafigida ko'zda tutilgan sanagacha to'lash) to'lash mumkin. Mikroqarzni muddatidan oldin qisman to'lash Qarzдорning To'lash grafigida ko'zda tutilgan sanalarda muddatidan oldin qoplangan summaga kamaytirilgan keyingi to'lovlarni to'lash majburiyatini to'xtatmaydi. Tushgan mablag'larning ortiqcha qismi har oylik to'lovlarni kamaytirgan holda asosiy qarzni to'lashga yo'naltiriladi.

		Muddatidan oldin to'liq to'lash summa bo'yicha cheklavlarsiz, jarima sanksiyalarisiz pul mablag'larini kiritish sanasida amalga oshiriladi.
--	--	---